IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, ҳужжат коди: MM41221З8448

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi: Shartnoma
2. Loyihaning nomi: Autsorsing shartlari asosida kir yuvish xizmatini tashkil etish uchun SHARTNOMA

3.Loyihaning mazmuni: Olmaliq shahar Tibbiyot birlashmasi va «TEX INVEST METALLURGY» MChJ o’rtasida autsorsing shartlari asosida kir yuvish xizmatini tashkil etish uchun bo’yicha shartnoma tuzish to‘g‘risida.

4. Loyiha haqida ma’lumot.

Ushbu shartnoma loyihasi Olmaliq shahar Tibbiyot birlashmasi tomonidan 2022-yil 18-noyabr kuni Olmaliq shahar yuridik xizmat ko‘rsatish markaziga taqdim etilgan.

Shartnoma loyihasi umumiy qiymati **77 898 140,00 so'm**.

Loyiha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-yanvardagi 16-son qarori asosida o‘rganib chiqildi.

Shartnoma loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentyabrdagi PF-6313-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-yanvardagi 16-son qarori talablariga asosan ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Bosh yuriskonsult M.Ashurova

Юрист исм фамилияси: ASHUROVA MATLUBA MAXMUDOVNA

## Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 173405 на приобретение Олмалик шахар Тиббиёт бирлашмаси пастел белёларини тозалаш хизмати

Способ проведения электронный

Дата 14.11.2022

Время рассмотрения 14.11.2022 08:57

Закупочная комиссия Олмалик шахар Марказий шифохонаси, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | GAFFAROV NIZOMJON ABDIQADIROVICH | Бош шифокор | Олмолик шахар Тиббиёт Бирлашмаси |
| **Секретарь комиссии** | URINBAYEVA SHAXSANAM ERKINOVNA | иктисодчи | Олмалик шахар тиббиёт бирлашмаси |
| **Член комиссии** | ARISLONOVA DILNOZA KARIMJONOVNA | бош хамшира | Олмалик шахар тиббиёт бирлашмаси |
| **Член комиссии** | RASULOV BEKMUROD ATAMURADOVICH | Бош шифокорни даволаш ишлари буйича уринбосари | Олмалик шахар тиббиёт бирлашмаси |
| **Член комиссии** | KUTTIBAYEV FARXOD URAZOVICH | Олмалик шахар тиббиёт бирлашмаси бош хисобчиси | Олмалик шахар тиббиёт бирлашмаси |
| **Член комиссии** | MAMATKARIMOV ZAYNALI ERKINOVICH | HO'JALIK MUDIRI | OSHTB |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 14.11.2022 года № лота 173405.
Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 100.00 / Весовой коэф. ценовой части: .00)

Мин. балл: 20

Предмет закупки:

| **Наименование товара (работы, услуги)** | **Услуги прачечных** |
|---|---|
| Подробное описание | Услуги прачечных |
| Количество товара | 9 523.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 8 400.00 |
| Стартовая сумма | 79 993 200.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Пастел белёларни тозалаб ювиш учун захираси мавжудлиги, пастел белёларни тозалаб ювишни уз вақтида бажариб бериш ҳақида кафолат хати, солиқ органидан солиқ ва бошқа мажбурий тўловлардан қарздорлиги мавжуд эмаслиги тўғрисида маьлумотнома мавжудлиги Банкдан картотекада турмаслиги туғрисида маьлумот асл нусхаси тақдим этилиш керак

Тип: Бинарное значение

Описание:

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| TEX INVEST METALLURGY MCHJ | 20 | 1 | 15 | Экспертная | | |
| ООО AKMALXON MOBIL BARAKA | 20 | 1 | 10 | Экспертная | | |

Критерий №2 Пастел белёларни тозалаб ювиш муддати ва пастел белюларни ювишда кетадиган махсулотлар калькуляцияси, танлов иштирокчилари томонидан коррупция кўринишларига йўл қўйилмаслиги бўйича кафолат хатининг мавжудлиги

Тип: Бинарное значение

Описание:

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| TEX INVEST METALLURGY MCHJ | 20 | 1 | 15 | Экспертная | | |
| ООО AKMALXON MOBIL BARAKA | 20 | 1 | 5 | Экспертная | | |

Критерий №3 Ташкилотнинг Давлат идоралари рўйхатидан ўтказилаганлиги ҳақидаги гувохнома мавждлиги

Тип: Бинарное значение

Описание:

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| TEX INVEST METALLURGY MCHJ | 20 | 1 | 20 | Экспертная | | |
| ООО AKMALXON MOBIL BARAKA | 20 | 1 | 8 | Экспертная | | |

Критерий №4 Ташкилотда фаолият юритувчи ходимлар сони (Ф,И,Ш, лавозими хамда иш тажрибаси ҳақида тўлиқ маьлумот, QR коди билан) Танлов иштирокчисининг иш хақи жамғармаси ва ходимлар ўртача сони бўйича кўрсаткичлари (солиқ қумитасидан маьлумотнома)

Тип: Бинарное значение

Описание:

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| TEX INVEST METALLURGY MCHJ | 20 | 1 | 10 | Экспертная | | |
| ООО AKMALXON MOBIL BARAKA | 20 | 1 | 5 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Сумма с учетом конвертации (UZS) | Применение преференции | Общее значение (UZS) | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **ООО AKMALXON MOBIL BARAKA** | 79 993 200.00 | 79 040 900.00 UZS | 79 040 900.00 | 00.00 | 79 040 900.00 | 08.11.2022 08:25:36 | 0 |
| **TEX INVEST METALLURGY MCHJ** | 79 993 200.00 | 77 898 140.00 UZS | 77 898 140.00 | 00.00 | 77 898 140.00 | 08.11.2022 08:22:50 | 0 |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|---|---|---|---|
| **ООО AKMALXON MOBIL BARAKA** | 35 | 0 | 35 |
| **TEX INVEST METALLURGY MCHJ** | 75 | 0 | 75 |

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 173405 от 14.11.2022 года на приобретение Олмалик шахар Тиббиёт бирлашмаси пастел белёларини тозалаш хизмати определила победителем:

TEX INVEST METALLURGY MCHJ
306034554

и резервный исполнитель: ООО AKMALXON MOBIL BARAKA (305238173)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | GAFFAROV NIZOMJON ABDIQADIROVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | ARISLONOVA DILNOZA KARIMJONOVNA | Согласен | |
| **Член комиссии** | RASULOV BEKMUROD ATAMURADOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | KUTTIBAYEV FARXOD URAZOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | MAMATKARIMOV ZAYNALI ERKINOVICH | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

**173405 лот юзасидан шаклланган дастлабки баённоманинг муҳокамаси натижаси бўйича расмийлаштирилган электрон баённомаси**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 20 майдаги 276-сонли қарорига асосан дастлабки электрон баённома у расмийлаштирилган кундан бошлаб давлат харидларининг электрон тизимида муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди.

Икки иш куни ичида иштирокчилар томонидан танлаш (тендер) ўтказиш натижалари бўйича эътирозлар тушмаганлиги тўғрисида харид комиссияси аъзолари тегишли қарор қабул қилди.

Муҳокама тугаган сана: 17.11.2022 14:56

Комиссия раиси: GAFFAROV NIZOMJON ABDIQADIROVICH

**Autsorsing shartlari asosida Kir yuvish xizmatini tashkil etish uchun**

**SHARTNOMA № 6**

Olmaliq shaxri 2022 yil « 18 » 11

Keyingi o'rinlarda Buyurtmachi deb ataluvchi O. Sh. T B nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi bosh shifokor N. A. Gaffarov bir tomondan va keyingi o'rinlarda Autsorser deb ataluvchi MCHJ «TEX INVEST METALLURGY» nomidan Ustav (ishonchnoma) asosida faoliyat yurituvchi direktori O. A. Bekmurodov ikkinchi tomondan, keyinchalik Tomonlar deb ataladi, ushbu Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

**I. Shartnoma predmeti**

1.1. Autsorser Buyurtmachining topshirig'i bo'yicha mazkur Shartnomaning 1.2-bandida qayd etilgan xizmatlarni ko'rsatish, Buyurtmachi esa — ushbu xizmatlar uchun pul to'lash majburiyatini oladi.
1.2. Autsorser mazkur Shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan muddatdan boshlab u tugaguniga qadar har kuni shifoxonaning kirxonasida kir yuvishini belgilangan me'yorlari hamda O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari bilan belgilangan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya etgan holda Buyurtmachi bilan kelishilgan xolda kir yuvish majburiyatini (keyingi o'rinlarda Xizmatlar deb ataladi) o'z zimmasiga oladi.
1.3. Xizmat ko'rsatish muddati:
2022 yil « 18 » 11 dan 2022 yil «31» dekabrgacha.
1.4. Tomonlar bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va Autsorser tomonidan amalda ko'rsatilgan Xizmatlar uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hisob-fakturani imzolaganidan hamda Buyurtmachi tomonidan Autsorserning mazkur Shartnomada ko'rsatilgan bank hisobraqamiga pul mablag'lari o'tkazilgandan so'ng Xizmatlar ko'rsatilgan deb hisoblanadi.

**II. Tomonlarning huquqlari va majburiyatlari**

2.1. Autsorser quyidagilarga majbur:
2.1.1. Kir yuvish xizmatini sifatli va toza yuvish bo'yicha sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarining tashkil etishga taalluqli qismlaridagi talablarga to'liq mos keladigan Xizmatlar ko'rsatish.
2.1.2. Belgilangan sertifikatlarga ega bulgan kir yuvish vositalaridan foydalanish.
2.1.3. O'zining omborida saqlanayotgan kir yuvish zaxiralarini yangilab turish.
2.1.4. Autsorser tomonidan sifatli va yangi maxsulotlar xarid qilish.
2.1.5. Xizmatlarni mazkur Shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan muddatda va to'liq hajmda ko'rsatish.
2.1.6. Xizmatlar ko'rsatish jarayonida Autsorser mazkur Shartnoma shartlariga amal qilmasdan, sifatsiz kitr yuvish vositalaridan foydalansa, yuvish sifatining yomonlashuviga olib kelgan barcha kamchiliklarni Buyurtmachining talabi bo'yicha bir kun davomida bepul bartaraf etish.
2.1.7. Xodimlar zimmasiga Buyurtmachining hududida odob-axloq qoidalari, shuningdek, ichki kun tartibiga rioya qilish majburiyatini yuklash.
2.1.8. Xizmatlarni bevosita ko'rsatish.
2.1.9. Xizmatlar narxini oshirmagan holda shaxsiy mablag'lari hisobidan:
soliqlar to'lash;
belgilangan tartibda u bilan mehnat shartnomasi tuzgan xodimlar mehnatiga haq to'lash;
kir yuvish vositalarini xarid qilish;
sovutuvchi kompressorlari va boshqa jihozlarni soz holatda saqlash, ta'mirlash, qayta to'ldirish;

ijaraga olingan bino, xona, mebelь, inventarь va boshqalarni zarur holatda saqlash va joriy ta'mirlash.
2.1.10. Tomonlar imzolaydigan tegishli qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va alohida ijara shartnomasini rasmiylashtirgan holda Buyurtmachidan ishlab chiqarish xonalari, jihozlar va mebel anjomlarini qabul qilib olish.
2.1.11. Mazkur Shartnomani bekor qilish haqida Buyurtmachini bir oy oldin yozma ravishda ogohlantirish, ushbu muddat tugaguniga qadar esa Buyurtmachi kir yuvishni uzluksiz tashkil etishni ta'minlash.
2.2. Buyurtmachi quyidagilarga majbur:
2.2.1. Bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va rasmiylashtirilgan hisob-faktura asosida ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi narxlar bo'yicha bir oyda kamida bir marta Xizmatlar haqini to'lash.
2.2.2. Autsorserga shaxsiy tarkibning kir yuvishni tashkil etish uchun ijara shartnomasi doirasida «nolь» stavkasi bo'yicha kir xona yuvish xonalari, jihozlari va mebel anjomlarini vaqtincha foydalanishga berish.
2.2.3. Tomonlar imzolaydigan tegishli qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va alohida ijara shartnomasini rasmiylashtirgan holda Autsorserga kir xonaning kir yuvish xonalari, jihozlari va mebelini topshirish.
2.2.4. Mazkur Shartnomani bekor qilish haqida Autsorserni bir oy oldin yozma ravishda ogohlantirish.
2.3. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:
2.3.1. Autsorserning faoliyatiga aralashmagan holda bajarilayotgan ishlarning yuritilishi va sifatini istalgan vaqtda tekshirish.
2.3.2. Buyurtmachi Shartnomani bajarishni rad etishi to'g'risidagi xabarnomani olguniga qadar Autsorserga ko'rsatilgan xizmatlarning qiymatini belgilangan tartibda to'lab, istalgan vaqtda Shartnomani bajarishdan bosh tortish.

## III. Shartnomaning narxi va o'zaro hisob-kitoblar tartibi

3.1. Mazkur Shartnomaning narxi:

| № | Mahsulotlar nomi | o'lchov birligi | soni | narxi | so'mmasi |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Kir yuvish xizmati | kg | 9 523 | 8 180,0 | 77 898 140,00 |
| | **JAMI** | | | | **77 898 140,00** |

Yetmish yetti million sakkiz yuz to’qson sakkiz ming bir yuz qirik so`m 00 tiyinni tashkil etadi.
3.2. Autsorserga oldindan 30 foiz miqdoridagi to'lov 5 bank kuni ichida o'tkaziladi.
3.3. Autsorser tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'zaro hisob-kitoblar bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va rasmiylashtirilgan hisob-faktura asosida ko'rsatilgan xizmatlarning amaldagi qiymati bo'yicha 70 foiz miqdorida haqiqatda ko'rsatilgan xizmatlar summasidan kelib chiqib o'n kunda kamida bir marta amalga oshiriladi.
3.3.1. 1kg kir yuvish uchun ko'rsatiladigan xizmatlarning amaldagi narxi Autsorser yetkazib beruvchidan xarid qilgan va tegishli me'yorlar bo'yicha tasdiqlangan narxlardagi mahsulotlarga qarab narx chiqariladi .
3.3.2. Buyurtmachi tomonidan amaldagi soni haqidagi ma'lumotlar va xar bir kg kir uchun ko'rsatiladigan xizmatlarning amaldagi narxi asosida Buyurtmachi kundalik talabiga muvofiq Autsorser bilan birgalikda har o'n kunda to'lanishi lozim bo'lgan summani ko'rsatgan holda bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasini tuzadi va hisob-fakturani rasmiylashtiradi hamda ular Autsorser rahbari va shifoxona bosh shifokori tomonidan imzolanadi.
3.3.3. Buyurtmachi tomonidan amalda ko'rsatilgan xizmatlar narxi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bajarilgan ishlar dalolatnomasi va hisob-faktura olingan vaqtdan boshlab 10 bank kuni davomida Shartnomada belgilangan summadan ortiq bo'lmagan miqdorda to'lanadi.

3.3.4. Mazkur Shartnomada ko'rsatilgan Shartnoma prognoz summasini hisoblash uchun kir yuvishning narxlari o'zgarganda yoki boshqa asosli holatlarda Tomonlardan birining tashabbusi bilan bir oyda bir marta qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

## IV. Tomonlarning majburiyatlari

4.1. Autsorser Buyurtmachi shaxsiy tarkibining kir yuvishni tashkil etishi bo'yicha Shartnoma majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmagan holatlarda Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi. Bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan xizmatlar oylik qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

4.2. Penya (jarima) to'lash Tomonlarni zimmasidagi majburiyatlarini bajarishdan yoki buzilishlarni bartaraf etishdan ozod qilmaydi.

4.3. Mazkur Shartnoma shartlarining bajarilmagani yoki tegishli darajada bajarilmagani uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikka tortiladilar.

4.4. Tomonlarning Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo'llaniladi.

## V. Munozarali vaziyatlarni hal etish tartibi

5.1. Mazkur Shartnomani bajarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar va kelishmovchiliklar imkon qadar Tomonlar o'rtasida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal etiladi.

5.2. Nizolar va kelishmovchiliklarni Tomonlar o'rtasida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal etish mumkin bo'lmaydigan holatlarda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan kelishmovchiliklarni suddan oldin bartaraf etish tartib-taomili amalga oshirilgandan so'ng ular O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda ko'rib chiqish uchun sudga beriladi.

## VI. Fors-major holatlar

6.1. Tomonlar majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar bunday holat yengib bo'lmas kuch, ya'ni tabiiy ofaatlar, tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda holatlar oqibati hisoblansa, javobgarlikdan ozod qilinadi. Bunda mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati mutanosib ravishda ushbu hodisalar ro'y bergan muddatga orqaga suriladi.

## VII.TOMONLARNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA MAJBURIYATLARI

7.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarinin bajarishda tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi, ya'ni tomonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi davlat xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

7.2. Yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan holatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izoh talab qilish huquqiga ega va murojaatni olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushuntirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

7.3. Mazkur bobning talablari bajarilmaganida, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korrupsion holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uni ijrosini to'xtatib turish huquqiga ega.

## VIII. Yakunlovchi qoidalar

8.1. Ushbu Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar faqat ular yozma shaklda rasmiylashtirilib, Tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolangandan so'ng haqiqiy hisoblanadi. Mazkur Shartnomaga barcha ilovalar uning ajralmas qismini tashkil etadi.

8.2. Tomonlarning hech biri mazkur Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini boshqa Tomonning yozma shakldagi roziligisiz biror-bir uchinchi tomonga berib yuborishi mumkin emas.

8.3. Ushbu Shartnoma ikki nusxada tuzilgan. Ikkala nusxa aynan bir xil bo'lib, bir xil yuridik kuchga ega. Tomonlarning har birida mazkur Shartnomaning bir nusxasi bo'ladi.

**IX. Mazkur Shartnomaning amal qilish muddati**

9.1. Ushbu Shartnoma ikki tomonlama imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

**IX. Tomonlarning manzili va bank rekvizitlari**

**"Buyurtmachi"**

O. Sh. T. B

Manzil: Olmaliq sh.

Ulug'bek-51 INN: 200603367

L/s: 100022860274094707310010054001

Toshkent shaxar markaziy bank XKKM

X/r:23402000300100001010.

MFO: 00014._INN: 201122919

________________ g'aznachilik bo'limi

m.o'. ________________ И. А. Гаффаров

**"Autsorser"**

MCHJ «TEX INVEST METALLURGY»

Manzil: Toshkent viloyati buka tumani

F.Azamatov FX Korakuyli Bog kucha 79

X/r: 2020 8000 9009 8498 2001

Bank: "IPOTEKA-BANK" ATIB

MFO:00 937 INN: 306 034 554.

m.o'. ________________ O.A. Bekmurodov

1685678

Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

# GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"TEX INVEST METALLURGY" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"TEX INVEST METALLURGY" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

24.01.2019 673480 ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR): 306034554

Tashkiliy-huquqiy shakli: Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi: Toshkent viloyati, Bo`ka tumani, Qoraqo`yli, G'. Azamatov F/U Bog' ko'chasi, 79

Guvohnoma: Toshkent viloyati, Bo`ka tumani, DAVLAT XIZMATLARI MARKAZI tomonidan berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):